



ORIENTFINANSBANK

«OFB Mobile onlayn mikroqarz!» promo-aksiyasi qoidalari

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu qoidalar «OFB Mobile onlayn mikroqarz!» promo-aksiyasini o'tkazish tartibi, shartlari, o'tkazilish joyi va muddatini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida XATB «Orient Finans» tomonidan o'tkaziladi.
- 1.3. Aksiya o'tkazish muddati: Aksiya 2026 yil 01 iyuldan 2026 yil 10 avgustgacha o'tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Aksiyada 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan ayollar va qizlar ishtirok etishlari mumkin. "Orient Finans" XATB xodimlari, ularning yaqin qarindoshlari hamda aksiyani tashkil etish yoki reklama qilishda ishtirok etgan shaxslar aksiyada qatnashish huquqiga ega emas.
- 2.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining ushbu qoidalarga to'liq roziligini anglatadi.
- 2.3. Qoidalarga rioya qilinmagan taqdirda, ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish va sovrin olish huquqidan mahrum bo'ladi. Sovrinni olish uchun ishtirokchilar Aksiya davomida ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarni bajarishlari shart.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun mijoz tegishli bosqich davomida OFB Mobile ilovasi orqali onlayn mikroqarz rasmiylashtirishi lozim.
- 3.2. OFB Mobile ilovasi orqali onlayn mikroqarz rasmiylashtirgan mijoz aksiya ishtirokchisi sifatida tan olinishi uchun ushbu mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikka ega bo'lmasligi lozim.
- 3.3. Belgilangan shartlarni bajargan mijoz avtomatik ravishda tegishli bosqichning ishtirokchisi hisoblanadi.
- 3.4 Har bir ishtirokchi faqat bir marta g'olib sifatida aniqlanadi.
- 3.5 Bank aksiya shartlari bajarilganligini o'z ichki tizimlaridagi ma'lumotlar asosida tekshiradi. Shartlarga mos kelmagan, bekor qilingan yoki texnik sabablarga ko'ra yakunlanmagan onlayn mikroqarzlilar aksiya doirasida hisobga olinmaydi.

4. Sovrin jamg'armasi

- 4.1. Aksiya doirasida 25 nafar g'olib aniqlanadi va ularga quyidagi sovg'alar taqdim etiladi.
 1. Bistecca restoraniga 500 000 so'mlik 5 ta sertifikat;
 2. Bloom ga 500 000 so'mlik 5 ta sertifikat;
 3. L'occitane brendidan 5 ta sovg'a to'plami;
 4. Soho saloniga 5 ta sertifikat;
 5. Hofmann brendidan 5 ta blender;

5. Promo-aksiyani o'tkazish tartibi va g'oliblarni aniqlash

- 5.1. Mazkur aksiya faqat ayollar uchun mo'ljallangan.
- 5.2. 4.1.- ko'rsatilgan yutuqli o'yinning ishtirokchilari deb aksiya shartlarini bajargan va quyida ko'rsatilgan davrda onlayn mikroqarz rasmiylashtirgan mijozlar hisoblanadi.

1-bosqich: 01.07.2026 yildan 10.08.2026 yilgacha (shu kun ham kiritilgan).
25 nafar g'olib 15.08.2026 yilga qadar aniqlanadi.

5.3 Bank Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, Aksiya o'tkazishda bahsli holatlar bundan mustasno.

5.4 Sovrinlar g'oliblari maxsus Random.org dasturi yoki shunga o'xshash tasodifiy raqamlar yaratish dasturlari orqali aniqlanadi.

5.5 Aksiyada ishtrok etish – ishtrokchilar o'z ism, sharflari, fotosuratlar va boshqa ma'lumotlarini tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida hech qanday qo'shimcha to'lovsiz qo'llashga rozilik berishini anglatadi.

5.6 Bank o'z xohishiga ko'ra ushbu Qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi va bu o'zgarishlar qo'llanilishidan 3 (uch) ish kuni oldin saytida e'lon qiladi. Bank sovg'alar ro'yxati va ularning miqdorini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Bank ishtrokchiga Aksiyada ishtrok etish bilan bog'liq yuzaga kelgan zarar, xarajat yoki boshqa yo'qotishlarni qoplamaydi.

5.7 Bank sovg'adan foydalanish davomida g'olibning sog'lig'i (hayoti) ga yoki uchinchi shaxslarning mulki, salomatligi yoki hayotiga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.8 Aksiyani o'tkazish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar Bank va ishtrokchi o'rtasida ixtiyoriy muzokara olib boorish yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo sud orqali ko'rib chiqiladi.

5.9 Bank shubhali yoki soxta tranzaksiyalar aniqlangan taqdirda, ishtirokchini sababini tushuntirmasdan aksiyadan chetlashtirish huquqiga ega.

5.10 Aksiya g'oliblari www.ofb.uz, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

5.11 Tashkilotchi ishtrokchining Aksiya shartlariga rioya qilmasligi oqibatlari uchun javobgar emas.

5.12 Sovrinni olishning so'nggi muddati — 2026-yil 28-avgust. Ushbu muddat tugaganidan so'ng sovrin taqdim etilmaydi va uni olish huquqi yo'qotilgan deb hisoblanadi.

6. Sovrinlarni qabul qilish tartibi va muddati

6.1 Sovrinlar Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 5-uyda joylashgan «Orient Finans» XATB da yoki boshqa filiallarda tegishli hujjatga imzo chekgan holda topshiriladi.

6.2 Sovrin – mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjati ma'lumotlari ishtrok etishdagi ma'lumotlarga to'liq mos kelganda topshiriladi.

6.3 Aksiya g'olibi sovrinni olish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjat asl nusxasini taqdim etadi.

6.4 G'olib sovrinni ololmasa, bu haqida xabar beradi va boshqa sana kelishiladi.

6.5 Sovrin topshirilishi – topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan rasmiylashtiriladi.

Barcha 4.1., band bo'yicha soliqlar, to'lovlar va boshqa xarajatlar Bank hisobidan to'lanadi.

Bankning sovrinni topshirish - qabul qilish dalolatnomasiga imzolangandan so'ng majburiyati bajarilgan xisoblanadi.

Sovringa egalik huquqi topshirilgan paytdan boshlab g'olibga o'tadi.

Sovrin topshirilishi ommaviy tadbir sifatida o'tkazilishi mumkin.

7. Aksiya ishtrokchilariga aksiya shartlari, aksiyani to'xtatish yoki muddatidan oldin yakunlash to'g'risida xabar berish tartibi

7.1. Aksiya haqidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa axborot kanallari orqali e'lon qilinadi.

7.2. Aksiya shartlari, muddatlari va natijalari bo'yicha batafsil ma'lumot www.ofb.uz (<http://www.ofb.uz/>) saytida joylashtiriladi.

7.3. Qo'shimcha ma'lumotlarni (+998 71) 200-88-99 telefon raqami orqali olish mumkin.